

Klichev Oybek Abdurasuovich

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarix kafedrası dotsenti,

tarix fanlari doktori (DSc)

klichev_oybek@mail.ru

1898-YILGI ANDIJON QO'ZG'OLONIGA BO'LGAN MUNOSABAT: QARASH VA TALQINLAR

Annotatsiya. Mazkur maqola so'nggi yillarda 1898-yilda sodir bo'lgan Dukchi eshon qo'zg'oloni xususida tadqiqot olib borgan B.Babadjanov, B.Alimdjanov, A.Erkinov, A.Morrison hamda Yu.I.Maksimov, A.B.Mametovalarning izlanishlariga asoslanadi. Mualliflarning qarashlari tayangan holda mazkur tarixiy voqealik bayon etiladi.

Kalit so'zlar: XX asrdagi siyosiy vaziyat, qo'zg'olon, talqin, tahlil, Muhammadali eshon, hajviyanavis, yozishma, tashqi omillar, N.S.Likoshin Afg'oniston amiri.

ОТНОШЕНИЕ К АНДИЖАНСКОМУ ВОССТАНОВЛЕНИЮ 1898 ГОДА: МНЕНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация. Данная статья основана на исследованиях Б.Бабаджанова, Б.Алимджанова, А.Эркинова, А.Моррисона, Ю.Максимова, А.Б.Маметовой, проводивших исследования о восстании Дукчи Эшон, произошедшем в 1898 году. Это историческое событие описано на основе взглядов авторов.

Ключевые слова: политическая ситуация в XX веке, восстание, интерпретация, анализ, Мухаммадали Эшан, карикатурист, переписка, внешние факторы, Н.С.Ликошин, эмир Афганистана.

ATTITUDES TOWARDS THE ANDIJAN RESTORATION OF 1898: OPINIONS AND INTERPRETATIONS

Annotation. This article is based on the research of B.Babajanov, B.Alimjanov, A.Erkinova, A.Morrison, Y.Maksimov, A. B. Mametova, who conducted research on the Dukchi Eshon uprising that took place in 1898. This historical event is described based on the views of the authors.

Keywords: political situation in the twentieth century, uprising, interpretation, analysis, Muhammadali Ashan, cartoonist, correspondence, external factors, N.S. Likoshin, Emir of Afghanistan.

Muhammadali eshon qo'zg'oloni masalasida mahalliy aholi va imperiya hukumati vakillarining munosabatlari turli rakurslarda namoyon bo'lgan. So'nggi yillarda mazkur tarixiy voqeylikni ijtimoiy, siyosiy jihatlarini tahliliga bag'ishlab tadqiqotlar ham nashr etildi. B.Babadjanov, B.Alimdjanov, A.Erkinov, A.Morrison izlanish natijalari mazkur jarayonning kelib chiqish sabablari, o'z davrida yoki o'tgan bir asr mobaynida bu voqeylikka bo'lgan munosabat masalalariga yangicha qarash va mulohaza yuritish imkonini yaratmoqda.

Umuman olganda, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O'rta Osiyoda sodir bo'lgan jarayonlar o'tgan bir asr davomida mavjud tuzum va g'oyaviy yo'naltirilganlik tamoyillari sabab turlicha talqin etilgan. Buni o'tgan asr davomida mintaqada uchta muhim siyosiy jarayon yuz berganligi bilan izohlash mumkin. *Birinchidan*, bu davrda uch yuz yil hukmronlik qilgan

Romanovlar sulolasi quladi. *Ikkinchidan*, o'lkada 1917-yilda –XX asr 80-yillar oxirigacha bo'lgan davrda sobiq ittifoq tarkibiga kiritilgan. *Uchinchidan*, 1991-yildan so'ng va hozirga qadar bo'lgan davrda O'rta Osiyo mintaqasida mavjud davlatlar o'z taraqqiyot yo'lini tanlash imkonini qo'lga kiritdi.

Tarixda deyarli har bir siyosiy jarayon o'zidan oldingi davrlarda sodir bo'lgan voqea hodisalarni tahlil hamda tanqid etgan holda tadqiq etishni ma'qul deb biladi. Qarashlar, yondashuvlar xilma xilligi tarixiy davrni o'rganishda ko'maklashishi bilan birga, uni murakkablashishiga ham xizmat qilishini unutmaslik darkor. Bunda tarixchilar xolislik tamoyillariga rioya etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Muhammadali eshon qo'zg'oloni misolida olib qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda voqeylikning asl sababi yoki undan ko'zlangan maqsadlarni xolis va asosli tarzda o'rganish imkonini mavjud.

Qo'zg'olon va uning sodir bo'lish masalasi o'tgan bir asr davomida turlicha talqin etilgan. Yondashuv va talqinlar davriy bo'linishlar bilan xarakterlidir. *Birinchi davr* bu aynan voqea sodir bo'lgan davr hisoblanib, unda qo'zg'olonga bevosita guvoh hamda ishtirokchi bo'lganlarning munosabati ahamiyatlidir. Biroq, zamondoshlar ham turli jabha/guruh/toifa vakillari bo'lganligi bilan ajralib turadi. Masalan, imperiya ma'murlari va ularning bu voqeaga bo'lgan munosabati. Yoki, mahalliy millat vakillari-ayniqsa shu davrda yashab ijod etgan shaxslarning Andijon qo'zg'olonining keng xalq ommasi taqdiriga ta'siri xususidagi qarashlari shular jumlasidandir.

Qo'zg'olonning sodir bo'lishiga sabablarni inkor etmasdan turib, Muhammadali eshon shaxsi va uning faoliyatiga to'g'ri baho berish va asosli mulohazalarni yuritishni talab etadi. Sharqshunos olim A.Erkinov izlanishlarining biri, Muhammadali eshon (Dukchi eshon) faoliyati uning zamondoshlari ilmiy merosida aks etishiga bag'ishlanganligi bilan e'tiborga molik. Olim 1898-yilgi qo'zg'olon va va uning rahbari xususida bayon etilgan adabiy asar namunalarini tahlil etishga intilgan. Muqimiy, Zavqiy kabilarning ilmiy merosi bunga misol bo'lishini qayd etad. A.Erkinov Muqimiy g'azallarining birida bu davrdagi soxta eshonlarning uddaburonona karomatlari tanqid ostiga olingan bo'lsa, hajviy-satirik janrda ijod etgan Zavqiy ham Andijon qo'zg'oloni mavzusida g'azal bitgani e'tiborga molik. Shular qatoriga *Roji Marg'iloniy*, *Umidi Xavoiiy*, *Toshxo'ja Asiriy*, *Sidqiy Xondaliqiy* kabi ijod ahli vakillarini ham kiritish mumkin. Yaratilgan g'azal, muxammaslarda Dukchi eshon shaxsiga nisbatan munosabat bayon etilgan. Albatta, ularning aksariyati hajviy-tanqidiy mazmunga egaligi bilan ajralib turadi.

A.Erkinov tadqiqoti davomida quyidagi tahliliy qarashlar: ya'ni mazkur masalaga doir izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarning biri guruhi bu kabi hajviyalar imperiya ma'murlarining siquvi ostida yaratilgan, degan xulosaga kelganligini ko'rsatsa, ikkinchi guruh olimlar esa hajviyanavis ijod ahli qo'zg'olon oqibatida mahalliy aholining nechog'lik qiynalganligi va imperiya zug'umiga duch kelganini o'z ko'zlari bilan ko'rganliklari, oqibatlarining achinarli bo'lganligi bilan izohlashga intiladilar.

Ikkinchi davr, ya'ni XX asrning 20-90-yillarida bo'lgan davr harakat xususida qarashlarning turli tumanligi bilan izohlanadi. Jumladan, XX asr 20-30-yillarda voqeaga imperiya hukumatining mahalliy aholiga nisbatan yuritgan *mustamlakachilik siyosati va zulmiga xalq qarshilik* harakati deb qaralgan. XX asr 40-60-yillarda tarixchi olimlar 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonini imperiya hukumatiga qarshi qaratilgan *dehqon va hunarmandlarning chiqishi* sifatida baho berishga intilganlar. Bu o'z navbatida, harakat o'lkada mehnatkash xalqining imperiya zulmiga qarshi kurashi mazmunida talqin qilindi.

Biroq harakatning sodir bo'lish xususiyati keng doirada muhokamalarga sabab bo'lgan. Muhokamalar Andijon qo'zg'oloni imperiya hukumati vakillariga qarshi qaratilgan qanday turdagi harakat edi, bunda uning ishtirokchilari maqsadlari qolaversa, unda diniy omilning nechog'lik ustunlikka ega bo'lganligi, qo'zg'olon xonavayron aholi tomonidan iqtisodiy qiyinchiliklarning bosh sababchisiga aylangan imperiya ma'murlariga qarshi qaratilgan edimi, kabi savollarga javob topishga qaratilgan edi. Mazkur davr izlanishlari shu kabi savollar va ularga turli talqinlarda berilgan javoblar bilan xarakterlanadi.

Tarixchi olim B.Alimdjanov o'z tadqiqotlarining birida XX asr 90-yillaridan e'tiboran, 1898-yil sodir bo'lgan Muhammadali eshon voqealariga baho berishda turlicha qarashlar

- 10 mavjudligini qayd etib o'tadi. B.Alimdjanov tarixchilar orasida bu voqea 1. *milliy ozodlik harakati*. 2. *sinfiy kurash* 3. *mustamlakachi hukumat nazdidagi kabi tashqi omil tufayli yuzaga kelgan kurash*. 4. *Dukchi eshon va uning faoliyati va maqsadlarni turli qarash prizmalari zahirida sodir bo'lgan harakat* sifatida baholanganligini ta'kidlaydi.

Tarixiy tadqiqotlarda voqea va hodisalarni turli prizmalar asosida o'rganish eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Bunda dastlab, voqeaning kelib chiqishiga xizmat qilgan asosiy omillar va ularning genezisiga aniqlik kiritiladi. Xolis yondashuv ham shunda namoyon bo'ladi. Zero, deyarli hech bir tarixiy jarayon bir maqsad yoki sabab natijasidagina vujudga kelmaydi...

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston general-gubernatorligidagi mahalliy aholining diniy qarashlari masalasida o'ta ehtiyotkorona siyosat yuritishni ma'qul deb hisoblaganlar. K.P.fon Kaufman zamonidan boshlab imperiya mutasaddilari mahalliy aholi madaniyati va diniy qarashlariga aralashmaslik siyosatiga rioya qilib kelishgan edi. Biroq qo'zg'olon Turkiston general-gubernatorligidagi imperiya ma'murlari o'lkada yuritgan musulmon aholisiga nisbatan qo'llagan siyosatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etishga majbur qildi.

Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati 1898-yilgi qo'zg'olonning kelib chiqishi quyidagi sabablarga bog'liq deb hisoblagan: 1. *Turkiston o'lkasida boshqaruvning ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasida bo'linganligi*. 2. *Uyezd boshliqlari turli byurokratik topshiriqlar bilan band bo'lgan holda o'z hududidan xabarsiz qolishi*. 3. *Mahalliy aholining mutaasibligi va qoloqligi*. 4. *Turkiyaning targ'iboti*. Bunday qarashlar o'lkada ma'murlari uchun o'z rahnamolari ya'ni imperiya vazirliklariga taqdim etilgan tushuntirish edi, xolos.

O'z davrida 1898-yilgi Andijon voqealari xususida imperiyaning yuqori doiralarida turli qarashlar hukmron edi. Tarixchi olim B.Alimdjanov Sankt-Peterburgda chop etilgan matbuot nashrlarda 1898-yilgi Andijon voqealari imperiya jamoatchilik e'tiboriga turli omillar zahirida sodir bo'lganiga ishonitirishga uringanini qayd etadi. Tashqi omillar, noproporsional iqtisodiy o'zgarishlar, diniy qarashlar, imperiyaning o'lkada noo'rin yuritgan siyosati kabilar shular jumlasidandir. O'lkaga yuborilgan maxsus vakillarning o'rganishlari ham bu qo'zg'olon diniy qarashlar bilan yo'g'rilgan harakat, degan xulosaga kelishni ta'minlagan. Bunday qarash harakatning asl mohiyatini xaspo'shlashdan boshqa ish emas edi.

Qo'zg'olon ishtirokchilari oldida xonlik tuzumini tiklash maqsadi ko'zlanganligi xususidagi asoslar ham imperiya vakillari doirasida yangragan. Buning uchun esa qo'zg'olon tashkilotchilari uchun go'yoki tashqi ko'mak yoki ittifoqchi zarur edi.

Aynan mazkur masalaga oydinlik kiritishga urinish sifatida A.Morrison tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin. Olim imperiya hukumati uchun Muhammadali eshonning harakati tashqi omillar asosida boshlanganligini isbotlash ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuvning tasdig'i g'oyoki, imperiyaning o'lkada yuritgan asl siyosati va uning oqibatini yashirishga xizmat qilishi kerak edi. Bu uchun esa imperiya ma'murlari kurashning turli usullaridan foydalanishi darkor edi.

Haqiqatdan ham, Mahammadali eshonning Usmoniylar sultoni yoki Afg'oniston amiri bilan yozishmalari masalasi o'ziga xos jihat hisoblanadi. Afg'oniston amirining Muhammadali eshon nomiga yo'llagan maktubi va uning asillilik darajasi masalasida A. Morrisonning tadqiqotlari nisbatan oydinlik kiritishga xizmat qiladi. 1899-yil 11-sentabrda N.S.Likoshin Afg'oniston amiri maktubining aniqlanishi va unga bosilgan muhrning asilligi masalasida bir nechta mutaxassislardan iborat guruh tashkil etgan holda maktubni o'rganish va aniq xulosaga kelishga intildi. Natijada maktub yozilgan qog'oz, uning yozilish uslubi, qolaversa, muhr sinchiklab o'rganildi. Xulosa esa maktubning soxtaligini ko'rsatdi... N.S.Likoshin sa'y-harakatlari mazkur farazni inkor qilishga "ko'maklashgan".

Andijon qo'zg'oloni o'lkada ma'murlari uchun mahalliy aholiga ayniqsa, uning qadriyatlariga nisbatan chora ko'rish imkonini yaratgani bilan ham baholangan. Qo'zg'olon o'lkadagi ma'murlarning o'zlari ko'zlagan ammo ma'lum bir omillar sabab amalga oshmasdan qolgan siyosatni yuritishga asos bo'lgan. U ham bo'lsa din va diniy masalalarni nazoratga tutishni kuchaytirishdan iborat edi. Harbiy doiralar qo'zg'olonning diniy omillariga urg'u bergan holda

uni imperiyaning o'lkadagi mavjud siyosati uchun asosiy xavfli jihat sifatidagi qarashni yoyishi darkor edi.

O'z zamonida qo'zg'olonning diniy motivlar zahirida sodir bo'lganligini asoslashga uringan shaxslardan biri bu V.Nalivkin hisoblanadi. U o'lkada imperiya madaniyatini yoyish uchun aynan ruhoniylar toifasi xavf tug'dirishini bir necha marotaba ta'kidlagan. E'tibor bilan qaralsa, bu davrda aynan aholining muayyan ongli toifasigina imperiya yuritayotgan yoki joriy etayotgan o'zgarishlarni anglay olgan edi. Zero, jamiyatning ma'lum ma'noda ziyoli qatlami o'z xalqiga nisbatan yuritilayotgan siyosatni to'g'ri tushuna olgan. Kerak bo'lgan taqdirda esa bunga qarshi tura olishga ham intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимджанов Б. Андижанские события 1898 г.: взгляды, факторы и интерпретации // Russian Colonial Studies. 2019. – №2. – С.3-32.
2. Бабаджанов Б. Андижанское восстание 1898 года и “Мусульманский вопрос” в Туркестане (взгляды “колонизаторов” и “колонизированных”) // Ab Imperio. 2009. – №2. – С. 155-200.
3. Эркинов А. Андижанское восстание и его предводитель в оценках поэтов эпохи // Вестник Евразии. – Москва, 2003. – №1(20). – С. 111-137.
4. Максимов Ю.И., Мамбетова А.Б. Андижанское восстание 1898 г. по материалам Фотоархива Музея землеведения МГУ // Жизнь Земли. 2022. – Т.44. – №3. – С.343-353.
5. Моррисон А. Суфизм, панисламизм и информационная паника: Н.С.Лыкошин и последствия Андижанского восстания. Перевод с английского О. Берард // Tartari Magna. – Улан-Удэ, 2013. – №2. – С. 44-87.
6. Ziyoyev H.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash – Toshkent: “Sharq”, 1998. – 480 b.